



KOVUL ÒSIMLIGI DORIVORLIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATILARI

Xoldorova Rayhona

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada Isiriq (P. harmala), Kovul, kovar (Capparis spinosa L.) o'simliklarining biologik va dorivorlik xususiyatlari bayon etilgan. Kovul (Amaranthus) – Amarantlar oilasiga mansub o'simlik turi bo'lib, asosan issiq mintaqalarda o'sadi. Ushbu o'simlik qadimdan oziq-ovqat va dori vositasi sifatida ishlatilib kelinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kovulning dorivorlik xususiyatlari organizmga ko'plab foydali ta'sirlar ko'rsatadi.*

Biologik xususiyatlari Kovul o'simligi bir yillik yoki ko'p yillik o'simliklar qatoriga kiradi. U erta bahorda unib chiqib, yoz oylarida gullaydi va urug' hosil qiladi. Asosan, qizil, yashil va binafsha rang barglari bilan ajralib turadi. Uning bo'yi 1,5-2 metrgacha yetishi mumkin.

Kalit so'zlar: *Isiriq (P. harmala), Kovul, kovar (Capparis spinosa L.), Nurota tog'lari va Qo'ytosh, Baliqlitov, Pistalitog', Yetimtog' tizmalari, handonpista, yong'oq, bodom, na'matak, zira, zirk.*

Аннотация: *В данной статье описаны биологические и лечебные свойства растений Ладан (P. harmala), Ковул, Ковар (Capparis spinosa L.).*

Ключевые слова: *Благовония (P. harmala), Ковул, ковар (Capparis spinosa L.), Нуратинские горы и Койташ, Баликлитов, Писталитог, хребты*

Етимтог, хандонписта, грецкий орех, миндаль, наматак, тмин, барбарис.
Annotation. this article describes the biological and medicinal properties of the plants Incense (P. harmala), Kovul, kovar (Capparis spinosa L.).

Key words: *Incense (P. harmala), Kovul, kovar (Capparis spinosa L.), Nurata mountains and Koytash, Baliklitov, Pistalitog, Yetimtog ridges, handonpista, walnut, almond, namatak, cumin, barberry.*

Forish tumani – Jizzax viloyatida joylashgan tuman bo'lib 1935 yil 9 fevralda tashkil etilgan. Tuman hududi viloyatning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. Relyefi payettekislik, qir, adir va Nurota, Pistali tog'laridan iborat. Nurota tizmasi shimoliy sharqdan (230–250 m) janubiy-g'arbga (1400–2000 m) ko'tarila boradi. Eng baland joyi 2169 m (Zargar tog'idagi Hayotboshi cho'qqisi). Janubiy-g'arbda Nurota tog'lari va Qo'ytosh, Baliqlitov, Pistalitog', Yetimtog' tizmalari joylashgan. Tumanda Arnasoy, Tuzkon, Baliqli, Pistali ko'llari va Aydar botig'i bor.

Dag'al o'tlar hamda itqovun, yulg'un, yantoq, sho'ra, shuvoq kabi o'simliklar qorako'l qo'ylar uchun muhim ozuqadir. Tog'li qismida yovvoyi jiyda, olma, archa, handonpista, yong'oq, bodom, na'matak, zira, zirk va boshqa o'sadi.

Isiriq (Peganum.h) — isiriqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi. Bo'yi 60—70 sm. Poyasi bir nechta, sershox. Barglari kulrang yoki yashil.



Gullari sarg'ish-oq, shoxining uchida. Mevasi dumaloq ko'sakcha. 6 turi ma'lum.

O'zbekistonda 1 turi (*P. harmala*) o'sadi. Cho'l va yarim cho'llarda, aholi yashaydigan yerlarda, ekinlar orasida va tog' yon bag'irlarida uchraydi. Tarkibida alkaloidlar (garmin, garmalin, peganin va b.), yog', bo'yoq va b. moddalar bor.

Tabobatda qadimdan turli kasalliklar (tutqanoq, tomoq og'rig'i, zaxm)ni davolashda, siydik haydovchi, terlatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Urug'idan jun gazlama va shoyilar uchun bo'yoq olinadi. 1-rasm.



1-rasm. *Peganum harmala*.

Kovul, kovar (*Capparis spinosa* L.) — kovuldoshlar oilasiga mansub yarim buta.

Poya va shoxchalari yotiq, bargi tuxumsimon, guli yirik, oq yoki och pushti.

Mevasi qizil etli, ko'p urug'li. 2-rasm.



2-rasm. Kovul, kovar (*Capparis spinosa* L.)

Qrim, Kavkaz, O'rta Osiyo, Shim. Afrika va O'rta dengizning toshloq yerlarida ko'p tarqalgan. Janubiy Yevropada ekiladi. Kovulning g'unchasi, mevasi sirkalab yoki to'zlab ovkatga solinadi.

Mevasida 18% oqsil moddalar, 36% cha moy bor. Cho'l va adirlarda, yo'l bo'ylarida, devorlar ustida, ekinlar orasida o'sadigan kovul ko'p urug'li rezavor bo'lib, mevalari etdor, uzunligi 2 smga boradi. Iyul-avgust oylarida urug'lari pishadi. Bu dorivor o'simlikning mevalari tarkibida saponinlar, alkaloidlar, 32,9 foiz uglevodlar, 150 mg askorbin kislota,

3,75 foiz moy, ildiz po'stlog'ida staxidrin alkaloidi mavjud. Kovul yoki kavar o'simligi tabiiy holda O'rtayer dengizi, Yevropa janubida, Kavkazda, O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda, Pokiston va Hindistonda tarqalgan.



Kovul dorivor o'simlik bo'lishi bilan bir qatorda oziq-ovqatda ham ishlatiladi. Kovulning g'unchali novdalari, g'unchalari, rivojlanayotgan mevalari sirka kislotasida marinovat qilinadi hamda oziq-ovqatda «kaperslar» nomi bilan mashhur doridarmon ko'rinishida foydalaniladi.

Hindular kovulni kobra, kabra yoki kabarra nomlari bilan atashadi hamda o'simlik organlari qo'shib tayyorlangan oziqovqatlarni yoqtirib iste'mol qilishadi. Tabobatda pishgan mevasi, barglari, novda va ildiz po'stlog'i ishlatiladi.

May-avgust oylarida ochilmagan g'unchalari, barglari terib olinadi. Shu bilan birga yosh, yog'ochlasha boshlagan novdalari va ildizining po'stlog'i shilib olinadi, maydalanadi hamda quyoshda yoki 50-60°C haroratda quritiladi.

Po'stlog'idan tayyorlangan damlama ishtaha ochuvchi ta'sirga ega. Xalq tabobatida yiringli yaralarni davolash uchun ishlatiladi.

Yangi shilingan po'stlog'i og'rig'an tishga bosilganda ijobiy natija beradi. Ba'zan ochiq yiringli yaralarga qo'yilganda antiseptik ta'sir qiladi. Bundan tashqari o'simlikdan stenokardiyada, tireotoksikoz, gemorroyda, qandli diabet kasalligini davolashda ham foydalaniladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Isiriq (*Peganum.h*) va Kovul, kovar (*Capparis spinosa L.*) o'simliklari Jizzax viloyati hududida ayniqsa Forish tumanida uchraydi. Ular ko'p yillik o'simliklar hisoblanib, bu o'simliklarga bo'lgan talab davlat miqyosida yuqori bo'lib ayniqsa Kovul, kovar (*Capparis spinosa L.*) o'simligining plantatsiyalari tashkil etildi.

Mahalliy aholi ham bu o'simliklarni juda yaxshi biladi va dorivorlik xususiyatlaridan foydalanib keladi. Shu sababli bu o'simliklarning hozirgi vaqtdagi biologik xususiyatlari va morfologik belgilari va boshqa foydali xususiyatlari olimlar tomonidan qiziqib o'rganib kelinmoqda.

Kovul (*Amaranthus*) – Amarantlar oilasiga mansub o'simlik turi bo'lib, asosan issiq mintaqalarda o'sadi. Ushbu o'simlik qadimdan oziq-ovqat va dori vositasi sifatida ishlatilib kelinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kovulning dorivorlik xususiyatlari organizmga ko'plab foydali ta'sirlar ko'rsatadi.

Biologik xususiyatlari Kovul o'simligi bir yillik yoki ko'p yillik o'simliklar qatoriga kiradi. U erta bahorda unib chiqib, yoz oylarida gullaydi va urug' hosil qiladi. Asosan, qizil, yashil va binafsha rang barglari bilan ajralib turadi. Uning bo'yi 1,5-2 metr gacha yetishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эшанкулова Н.Т., АхмедоваЗ.П. *Capparis spinosa* ўсимлигининг биокимёвий хусусиятлари ва унинг Жиззах вилояти чўллик ҳудудларидаги экологик жиҳатлари// ЎзМУ хабарлари - Тошкент. 2013. № 4. 95-98 Б. (03.00.00.№9)



2. Государственная фармакопея СССР: вып. 1,2 общие методы анализа лекарственное растительное сырьё, мз СССР. - 11 - е изд., доп. - М: Медицина, 1987, 1989.